

TRASOLOGIK EKSPERTIZADA QISMLAR ORQALI YAXLITLIKNI ANIQLASHNING
AHAMIYATI VA UNING IMKONIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Saidqulova Mashhura Ikromjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada trasologik ekspertizada o'tkazib kelinadigan qismlar orqali yaxlitlikni aniqlash ekspertizasining jinoyatlarni ochishdagi o'рни va ahamiyati, tadqiqotga kelgan obyektни tekshirish jarayoni.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены роль и значение проверки целостности частей, проводимой при трасологической экспертизе при раскрытии преступлений, процессе исследования объекта расследования.*

Abstract: *In this article, the role and importance of the examination of the integrity of the parts carried out in the trasological examination in solving crimes, the process of examining the object under investigation.*

Kalit so'zi: *Trasologiya, yaxlitlikni aniqlash, identifikatsion belgilar, butunni bo'laklarga qarab identifikatsiya qilish.*

Ключевые слова: *Трасология, определение целостности, опознавательные знаки, идентификация целого по частям.*

Key word: *Trasology, determination of wholeness, identification marks, identification of the whole by parts.*

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi".

Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar atrof muhitda o'ziga xos ravishda qolgan izlarda ifodalanadi. Bu izlar esa kriminalistika sohasida moddiy izlar deb ataladi. Moddiy izlarni aniqlash, ularni hisobga olish va tekshirish usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, yuzaga kelish qonuniyatlarini zamonaviy texnika asosida tahlil qilish, shuningdek zamonaviy kriminalistik texnika sohasi bo'lgan izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'lim yoki trasologiyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Kriminalistikaning izlar haqidagi bo'limini ilk



bor “trasologiya” deb atashni taklif qilgan. I. N. Yakimov ushbu bo‘limga kriminalistik jihatdan alohida ahamiyat qaratib, hozirgi vaqtda kriminalistikada ashyoviy dalillar va izlar haqidagi ta’limot yoki “trasologiya” birinchi darajali ahamiyatga egaligini ta’kidlagan.

Trasologiya (fransuz trace- iz va logiya- o‘rganaman)- kriminalistika fanining bir bo‘limi bo‘lib, iz hosil bo‘lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo‘yish usullari va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o‘z ichiga oladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, uni sodir etish va izlarini yashirishda avval bir butunni tashkil qilgan turli buyumlar qismlarga ajratilib ketishi mumkin. Buning uchun butunni uning qismlari orqali aniqlash ekspertizasi o‘tkaziladi. Bunday paytda tadqiqot uchun berilgan obyekt bosqichma-bosqich tekshirish yo‘li bilan aniqlanadi.. Dastlab, tekshirilishi lozim bo‘lgan obyektning xususiyati, uning aynan bitta jism yoki yaxlit ekanligini, jismlar o‘zaro yaxlitlikni tashkil qilish yoki qilmasligini, agarda tekshirilayotgan jism bo‘laklari bir-biriga mos kelsa, jismning shakl, hajm va uning belgilarining joylashishini ketma-ket taqqoslashdan iborat bo‘lgan qiyosiy taqqoslash natijalari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot trasologik ekspertizaning butun orqali qism va qism orqali butunni aniqlash bo‘limida o‘rganiladi.

Kriminalistik ekspertizada «butun» tushunchasi hal qilinayotgan vazifalar xususiyatini hisobga olgan holda turlicha talqin etilishi mumkin. Zero, bir holatda obyekt qism sifatida, boshqa holatda butun sifatida ifodalanadi. Bunda butun qismlarining butunga taalluqliligini aniqlash imkoniyati obyektning fizikaviy tarkibi va materialining tashkiliy tuzilishi orqali aniqlanadi. Obyektlar o‘zining tashkiliy tuzilishiga qarab, umumiy butun modda va yaxlit modda tizimlariga bo‘linadi. Umumiy butun tizimlarda, butun tarkibida bo‘lgan yoki undan chiqayotgan vaqtda obyektlarning faqat hajmi o‘zgaradi, modda esa hech qanday sifat o‘zgarishlariga uchramaydi.

Yaxlit tizimlarga qattiq jismlar kiradi. Ularning ichki tuzilishi faol xususiyatga ega bo‘lib, ularga nisbatan tashqi ta’sirga ta’sirchan xususiyatga ega bo‘ladi. Umumiy butun modda yaxlit tizimga aylanishi mumkin.

Trasologiyada yaxlit tizimlar uch turga ajratiladi:

1. Bir jinsli buyumlar.
2. Qo‘shma predmetlar, o‘zaro alohida qismlar bilan birikkan bo‘ladi.
3. Komplekt yaxlit buyumlar.

Trasologiyaning bu tizimlari orqali butunni qismlar orqali aniqlashga qaratilgan ekspertizani amalga oshirishda hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar tekshirish uchun taqdim etilgan obyekt turlariga bog‘liq. Barcha holatlarda identifikatsiya qilinayotgan



obyekt- butun, identifikatsiyalovchi obyekt, tekshirilayotgan qismlar (bo'laklar) hisoblanadi. Alohida tekshirish bosqichida buyumlarning guruhiy tegishliligi aniqlanadi. Bunda buyum bir butun (monolit) bo'lsa, uning bo'laklari materiali o'rganiladi. Tadqiqot davomida esa materialning bir turdaligiga (bir xil ahamiyatga egaligig)ga katta ahamiyat beriladi. Agar obyektlar qo'shma bo'lsa, qism bo'laklarining vazifasi o'rganiladi. Bunday jarayonda buyum materialining ahamiyati yo'q. So'ngra obyektlarning bir-biriga mosligi aniqlanadi, ya'ni ular tuzilishiga ko'ra bir-biriga mos bo'lishi kerak. Agar obyektlar turli xil bo'lib, o'zaro mos bo'lmasa qat'iy salbiy xulosa kelib chiqadi. Tadqiqotda obyektlarning bir xilligi va bir-biriga mosligi aniqlansa identifikatsiya belgilari aniqlanadi. Bu tadqiqot davomida obyektning tekshirilish jarayoni bo'lib, undan so'ng, shakl, hajm, belgilarining o'zaro joylashishini ketma-ket taqqoslashdan iborat bo'lgan qiyosiy tahlilga o'tiladi.

Qiyosiy taqqoslash natijalarini baholash - ekspertizaning uchinchi bosqichi hisoblanadi. Unda ekspert bir-biriga mos va farqlanadigan belgilarni har tomonlama tahlil qiladi, ularning muhim identifikatsiyalovchi mohiyatini aniqlaydi, barcha belgilarni majmuada va dialektik birlikda tahlil qiladi. Bundan tashqari tadqiqotga, turli xildagi obyektlarni tekshirish topshiriladi. Masalan, obyektning umumiy bo'linish chizig'i bo'lmaganida butunni qismlarga qarab aniqlash, qog'ozdan tayyorlangan buyumlar bo'laklarini tekshirish, metallardan ishlangan buyumlarni tekshirish kabi bir qator ekspertizalar o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Ichki ishlar organlari xodimlari kuni" munosabati bilan tabrigi //https://iiv.uz/news/.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 08.02.2022
3. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2022.
4. Trasologik ekspertizasi bo'yicha qo'llanma.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 08.02.2022
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi. 2016-yil 17-sentabr. №184-son.
7. <https://daryo.uz/2016/10/22/> shavkat mirziyoyev "jinoyatchilikning oldini olish har qanday jinoyatga adolatli baho berishga qaratilgan ishlarimiz keskin kuchaytiriladi" nutqi.

